





TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2021- yil yanvar-aprel oylari
uchun dastlabki ma'lumot)*

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakuni bilan Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **4318,9** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **823,5** mln. AQSh dollariga yoki **23,6** % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI

(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	3495,4	4318,9	123,6 %	x
Eksport 	850,0	1043,9	122,8 %	100,0
 <u>tovarlar</u>	316,9	498,9	157,4	47,8
 <u>xizmatlar</u>	533,1	545,0	102,2	52,2
Import 	2645,3	3274,9	123,8 %	100,0
 <u>tovarlar</u>	2493,8	3131,2	125,6	95,6
 <u>xizmatlar</u>	151,5	143,8	94,9	4,4
 Saldo	-2176,9	-2632,2	x	x



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **1043,9** mln. AQSh dollariga (**22,8** % ga ko'paydi) va import hajmi **3274,9** mln. AQSh dollariga (**23,8** % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – **2632,2** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

TOSHKENT SHAHRI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2021- yil yanvar-aprel mln. AQSh dollari)



Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.


Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, Afg'oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya federatsiyasi, Hindiston, Germaniya, Litva va Ukraina davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



20 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA UCHTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR

(2021- yil yanvar-aprel)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg'oniston (**126,9** mln. AQSh dollari), Tojikiston, (**46,6** mln. AQSh dollari) va Qirg'iz Respublikasi (**24,1** mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 17 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.











Toshkent jahonning **152** ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (**23,7 %**), Rossiya Federatsiyasida (**22,0 %**), Qozog'istonda (**11,0 %**), Turkiyada (**7,1%**), Afg'onistonda (**3,0 %**), Hindistonda (**2,7%**) va Germaniyada (**2,4 %**) qayd etilgan.



TOSHKENT SHAHRINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-aprel mln. AQSh dollari)













	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Xitoy Xalq Respublikasi	842,6	828,2	1011,7
	<i>Eksport</i>	237,1	206,6	275,8
	<i>Import</i>	605,5	621,6	735,9
	Rossiya Federatsiyasi	834,7	750,9	939,2
	<i>Eksport</i>	175,5	151,9	153,2
	<i>Import</i>	659,2	599,0	786,0
	Qozog'iston	288,1	314,9	467,2
	<i>Eksport</i>	56,7	84,6	107,1
	<i>Import</i>	231,5	230,3	360,1
	Turkiya	180,0	156,4	302,4
	<i>Eksport</i>	47,7	34,7	94,1
	<i>Import</i>	132,4	121,7	208,3
	Afg'oniston	102,9	134,4	127,2
	<i>Eksport</i>	102,5	134,1	127,0
	<i>Import</i>	0,4	0,3	0,2
	Hindiston	69,3	52,5	117,0
	<i>Eksport</i>	4,1	2,7	4,0
	<i>Import</i>	65,2	49,8	113,0
	Germaniya	152,5	122,2	100,4
	<i>Eksport</i>	9,1	16,8	7,3
	<i>Import</i>	143,5	105,4	93,2
	Litva	61,2	57,9	85,5
	<i>Eksport</i>	5,4	2,9	10,8
	<i>Import</i>	55,8	55,0	74,7
	Ukraina	59,7	64,1	81,1
	<i>Eksport</i>	5,7	6,5	15,7
	<i>Import</i>	54,0	57,6	65,4
	Turkmaniston	51,8	104,1	80,0
	<i>Eksport</i>	17,8	22,6	24,0
	<i>Import</i>	34,0	81,5	56,0



TOSHKENT SHAHRINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)




	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Italiya	56,5	44,6	75,1
	<i>Eksport</i>	5,9	2,4	0,5
	<i>Import</i>	50,6	42,2	74,6
	Tojikiston	48,2	59,7	59,2
	<i>Eksport</i>	42,2	56,1	52,9
	<i>Import</i>	6,0	3,7	6,3
	Koreya Respublikasi	245,2	76,8	56,7
	<i>Eksport</i>	15,4	6,4	4,9
	<i>Import</i>	229,8	70,3	51,7
	Qirg'iziston Respublikasi	40,6	26,9	56,3
	<i>Eksport</i>	33,2	20,1	40,2
	<i>Import</i>	7,4	6,7	16,1
	BAA	31,7	27,0	54,8
	<i>Eksport</i>	6,6	5,4	7,0
	<i>Import</i>	25,1	21,6	47,8
	Belarus Respublikasi	30,2	50,3	52,0
	<i>Eksport</i>	3,4	2,5	3,3
	<i>Import</i>	26,8	47,8	48,7
	Niderlandiya	20,4	37,5	47,0
	<i>Eksport</i>	0,4	0,8	5,1
	<i>Import</i>	20,0	36,7	42,0
	Fransiya	29,2	33,7	43,4
	<i>Eksport</i>	6,8	5,8	2,8
	<i>Import</i>	22,4	27,9	40,6
	Latviya	61,3	62,8	42,4
	<i>Eksport</i>	4,7	2,9	3,9
	<i>Import</i>	56,6	59,8	38,5
	AQSH	51,9	65,1	31,9
	<i>Eksport</i>	5,9	4,5	8,4
	<i>Import</i>	46,0	60,6	23,6



TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-aprel 2021- yil) *



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahri	4318,9	123,6
Uchtepa tumani	194,2	152,2
Bektemir tumani	88,4	101,1
Yunusobod tumani	495,3	88,6
Mirzo Ulug'bek tumani	263,5	132,5
Mirobod tumani	911,8	107,0
Shayxontohur tumani	400,5	135,5
Olmazor tumani	366,0	144,3
Sirg'ali tumani	279,4	119,4
Yakkasaroy tumani	406,7	136,4
Yashnaobod tumani	453,4	139,1
Yangi hayot tumani	57,3	0,0
Chilonzor tumani	375,4	165,5

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari

Mirobod t. – 911,8

Yunusobod t. – 495,3

Yashnaobod t. – 453,4

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari

Uchtepa t. – 194,2

Bektemir t. – 88,4

Yangihayot t. – 57,3

Shahar tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani **21,1** % ulush bilan **602,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Shahar tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Yangihayot tumani **1,3** % ulush bilan **57,3** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.






Toshkent shahri tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgardi.

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **41,6 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi **1,2 %** ga ko'paygan.

TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-aprel oylarida 2020- yilga nisbatan **1,1 %** ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi **58,9 %** ni tashkil etdi.



TOSHKENT SHAHRINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-aprel mln. AQSh dollari)




1992-yil 4- yanvarda O'zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi)ga a'zo bo'ldi. Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-aprel holatiga **1755,0** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport – **409,9** mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import – **1345,1** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**53,5%**), Qozog'iston (**26,6%**), Ukraina (**4,6** %), Turkmaniston (**4,6** %) va Tojikiston (**3,4** %) davlatlari bilan qayd etildi.



TOSHKENT SHAHRINING YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2020- yil 11- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi. YOII bilan Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi **1517,3** million AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **305,6** mln AQSh dollari, import hajmi esa **1211,7** mln AQSh dollariga yetdi.



TOSHKENT SHAHRI EKSPORTI


(2021- yil yanvar-aprel)



Joriy yilning yanvar-aprel oylarida shaharning eksportyorlari soni **828** tani tashkil etib, ular tomonidan **1043,9** mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan **22,8** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **47,8** % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**20,7** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**4,3** %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**6,5** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



TOSHKENT SHAHRI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-aprel, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami eksport	850,0	1043,9	94,2	122,81	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	34,8	44,5	174,4	127,8	4,1	4,3
Ichimliklar va tamaki	7,5	5,7	186,2	75,6	0,9	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6,7	15,0	94,0	222,7	0,8	1,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	64,6	53,9	115,6	83,5	7,6	5,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,4	0,0	-	0,7	0,1	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	48,1	68,1	93,5	141,6	5,7	6,5
Sanoat tovarlari	96,6	216,0	106,9	223,5	11,4	20,7
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	25,1	57,5	54,1	228,9	3,0	5,5
Turli xil tayyor buyumlar	33,0	38,3	95,8	116,1	3,9	3,7
Xizmatlar	533,1	545,0	90,0	102,2	62,7	52,2



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-aprel)



XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	9,9	2,6 b.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	29,5	109,4
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,5	89,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2,0	133,5
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	3,6	61,2
Tamaki va tamaki mahsulotlari	2,1	126,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	7,8	163,3
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	4,0	8,5 b.
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	0,7	18,2 b.
Metall rudalar va metallolom	0,6	106,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,3	10,9
Elektr toki	42,3	82,4
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	11,3	109,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	14,7	11,7 b.
Noorganik kimyo moddalari	7,3	94,8
O'g'itlar	34,4	117,0
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	3,4	2,7 b.

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-aprel)



XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	110,4	193,5
Rangli metallar	81,8	3,5 b.
Cho'yan va po'lat	1,5	99,6
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	9,5	2,0 b.
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Avtomobillar	0,2	7,8
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	43,8	2,9 b.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	4,3	2,5 b.
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	4,3	137,1
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	4,9	162,4
Poyabzal	0,4	3,6 b.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	0,6	2,8 b.





MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



So'nggi ikki yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020-yilning yanvar-aprelidagi **42,2 %** dan 2021-yilning yanvar-aprelida **39,6 %** ga tushdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **57,8 %** dan **60,4 %** ga ko'paydi.



SHAHAR EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI
(2021- yil yanvar-aprel, % da)

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining **26,4 %** i), Rossiya Federatsiyasi (**14,7 %**), Afg'oniston (**12,2 %**), Qozog'iston (**10,3 %**), Turkiya (**9,0%**), Tojikiston (**5,1%**) va Qirg'iz Respublikasi (**3,8 %**) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **81,5 %** ni tashkil etmoqda.



TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-aprel, yillar kesimida)*




Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Xitoy Xalq Respublikasi	206,6	275,8	87,1	133,5	1	1
Rossiya Federatsiyasi	151,9	153,2	86,6	100,8	2	2
Afg'oniston	134,1	127,0	130,8	94,7	3	3
Qozog'iston	84,6	107,1	149,3	126,6	4	4
Turkiya	34,7	94,1	72,7	271,5	6	5
Tojikiston	56,1	52,9	132,9	94,4	5	6
Qirg'iz Respublikasi	20,1	40,2	60,6	199,5	8	7
Turkmaniston	22,6	24,0	126,9	106,1	7	8
Ukraina	6,5	15,7	113,0	242,4	11	9
Ozarbayjon	5,8	11,4	102,6	196,5	15	10
Litva	2,9	10,8	54,5	365,9	21	11
Shvetsariya	3,0	8,9	109,4	299,5	20	12
Britaniya	6,0	8,8	47,8	148,4	14	13
AQSH	4,5	8,4	76,0	186,9	19	14
Eron	4,8	8,2	42,5	170,6	18	15
Germaniya	16,8	7,3	184,8	43,3	9	16
BAA	5,4	7,0	82,9	128,3	17	17
Chexiya	8,8	5,9	3179,5	67,2	10	18
Niderlandiya	0,8	5,1	204,4	611,3	34	19
Korea Respublikasi	6,4	4,9	41,9	76,8	12	20



TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-aprel)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	1 043,9	122,8
Uchtepa tumani	19,0	179,6
Bektemir tumani	12,2	143,5
Yunusobod tumani	109,4	99,0
Mirzo Ulug'bek tumani	26,9	189,0
Mirobod tumani	430,1	100,8
Shayxontohur tumani	102,1	175,8
Olmazor tumani	48,4	153,5
Sirg'ali tumani	99,4	182,1
Yakkasaroy tumani	94,4	142,2
Yashnaobod tumani	44,9	160,8
Yangi hayot tumani	11,4	-
Chilonzor tumani	33,6	224,5

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari

Mirobod t. – 430,1

Yunusobod t.– 109,4

Shayxontohur t.– 102,1

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari

Uchtepa t. – 19,0

Bektemir t. – 12,2

Yangi hayot t. – 11,4

Shahar eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani **41,2 %** ulush bilan **430,1** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Shahar eksporti tarkibida eng quyi ulushni Yangihayot tumani **1,1 %** ulush bilan **11,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-aprel)



Davlatlar	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi, % da *
 Rossiya Federatsiyasi	2,5	2,7	26,4
 Xitoy Xalq Respublikasi	2,7	2,6	25,1
 Fransiya	0,2	1,3	12,2
 Qozog'iston	3,9	1,2	12,2
 Germaniya	0,3	0,4	4,3
 Isroil	0,1	0,3	3,3
 Turkiya	0,2	0,2	1,9
 Qirg'iz Respublikasi	0,0	0,2	1,7
 Niderlandiya	0,1	0,2	1,5
 Ruminiya	0,1	0,2	1,5
 Pokiston	0,2	0,1	1,5
 Afg'oniston	0,2	0,1	1,4
 BAA	0,2	0,1	1,3
 Iroq	0,2	0,1	1,1
 Ozarbayjon	0,1	0,1	1,0
 Boshqa davlatlar	0,8	0,4	3,6

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 26,4% i), bu Fransiya eksport hajmidan 2,1 baravar ko'pdir.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI


(2021- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)




Transport xizmatlari **84,3%**




Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari **8,2 %**




Boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar **2,9 %**



Qurilish xizmatlar **1,6 %**



Boshqa xizmatlar **3,0 %**



Xizmatlar eksporti hajmi **544,9** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **52,2 %** ini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **2,2 %** ga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (**84,3%**), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**8,2 %**), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**2,9 %**) qurilish xizmatlari (**1,6%**) hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, boshqa xizmatlar (**3,0 %**)ni tashkil etib, tarkibida eng yuqori ulushlar sug'urta va pensiya xizmatlari (**0,6 %**), moliyaviy xizmatlar (**0,5 %**) hamda safarlar (turizm) (**0,6 %**) hissasiga to'g'ri keldi.



TOSHKENT SHAHRINING IMPORTI

(2021- yil yanvar-aprel)




2021- yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi **3274,9** mln. AQSh dollarini va 2020- yilga nisbatan **122,8** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**27,2%**), sanoat tovarlari (**21,6%**) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**18,8%**) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-aprelida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **637,4** mln. AQSh dollariga ko'paydi va **3131,2** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **143,8** mln. AQSh dollariga yetdi.



TOSHKENT SHAHRINING XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-aprel, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami import	2645,3	3274,9	88,8	123,8	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	221,4	324,1	91,4	146,4	8,4	9,9
Ichimliklar va tamaki	10,6	16,2	80,6	153,7	0,4	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	57,2	65,2	78,7	114,1	2,2	2,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	151,2	148,4	215,8	98,1	5,7	4,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	36,3	71,4	72,1	196,8	1,4	2,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	499,3	615,7	107,2	123,3	18,9	18,8
Sanoat tovarlari	481,3	707,8	80,3	147,1	18,2	21,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	856,4	889,4	76,2	103,9	32,4	27,2
Turli xil tayyor buyumlar	180,1	292,9	93,6	162,6	6,8	8,9
Xizmatlar	151,5	143,8	100,6	94,9	5,7	4,4



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-fevral)



XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	117,2	136,1
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	16,9	89,9
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	56,3	146,4
Sabzavotlar va mevalar	21,6	144,8
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	8,2	109,7
Ichimliklar	8,0	262,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Metall rudalari va metall parchalari	6,9	445,3
Probka va yog'och-taxtalar	32,1	107,2
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	5,9	127,5
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	2,7	59,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	93,1	111,6
Ko'mir, koks va briketlar	1,9	173,5
Elektr toki	53,4	101,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	52,7	183,0
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simlik yog'lari va moylaridan olingan texnik aralashmalar va preparatlar	18,1	262,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	308,1	142,8
Birlamchi shakldagi plastmassalar	63,5	118,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	88,5	88,4
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	62,2	124,0



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-aprel)



XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	332,1	163,6
Metaldan tayyorlangan buyumlar	80,9	152,4
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	42,4	149,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	132,8	91,3
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	168,5	145,2
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	194,1	160,6
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	136,1	162,2
Har xil tayyor buyumlar	90,9	227,5
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	25,1	102,7
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	12,9	85,9



Umumiy tovarlar importi o'tgan yilga nisbatan ko'payish bilan bir qatorda ayrim tovar guruhlarida ham o'sish kuzatildi. Masalan, tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari – **308,1** mln. AQSh dollari (o'sish – **42,9%**), efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari – **62,2** mln. AQSh dollari (o'sish – **24,0%**), donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar – **117,2** mln. AQSh dollari (o'sish – **36,1** %) ga yetdi.



MDH mamlakatlaridan import ulushi 2020- yilning shu davriga nisbatan **2,4 %** ga o'sdi. 2019- yilning shu davriga nisbatan **7,1 %** ga o'sish qayd etildi va ularning tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2021- yil yanvar-aprel natijalariga ko'ra **31,1 %** ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-aprel oylari yakuni bo'yicha Toshkent shahri tomonidan **145** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Hindiston, Germaniya va Litva) jami importning **73,4 %** ulushini tashkil qildi, bu **2371,2** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



SHAHAR IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-aprel, % da)



TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-aprel, yillar kesimida)




Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Rossiya Federatsiyasi	599,03	786,04	90,9	131,2	2	1
Xitoy Xalq Respublikasi	621,64	735,90	102,7	118,4	1	2
Qozog'iston	230,26	360,12	99,5	156,4	3	3
Turkiya	121,68	208,31	91,9	171,2	4	4
Hindiston	49,82	112,97	76,4	226,8	12	5
Germaniya	105,38	93,19	73,5	88,4	5	6
Litva	54,97	74,70	98,6	135,9	11	7
Italiya	42,20	74,64	83,3	176,9	14	8
Ukraina	57,64	65,37	106,8	113,4	10	9
Turkmaniston	81,53	56,00	239,9	68,7	6	10
Koreya Respublikasi	70,31	51,73	30,6	73,6	7	11
Belarus Respublikasi	47,77	48,74	178,1	102,0	13	12
BAA	21,58	47,82	86,0	221,6	18	13
Niderlandiya	36,70	41,98	183,3	114,4	15	14
Fransiya	27,87	40,65	124,3	145,9	17	15
Latviya	59,83	38,51	105,8	64,4	9	16
Polsha	17,25	26,12	135,1	151,4	20	17
Chexiya Respublikasi	30,86	24,35	224,2	78,9	16	18
AQSH	60,60	23,57	131,8	38,9	8	19
Shvetsariya	21,12	22,38	153,3	106,0	19	20



TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2021- yil yanvar-aprel)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahri	3 274,9	123,8
Uchtepa tumani	175,2	149,7
Bektemir tumani	76,1	96,5
Yunusobod tumani	385,9	86,0
Mirzo Ulug'bek tumani	236,6	128,2
Mirobod tumani	481,6	113,2
Shayxontohur tumani	298,4	125,7
Olmazor tumani	317,6	142,9
Sirg'ali tumani	180,0	100,3
Yakkasaroy tumani	312,3	134,7
Yashnaobod tumani	408,5	137,0
Yangi hayot tumani	45,9	0,0
Chilonzor tumani	341,8	161,3

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari

Mirobod t. – 481,6

Yashnaobod t. – 408,5

Yunusobod t. – 385,9

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari

Uchtepa t. – 175,2

Bektemir t. – 76,1

Yangi hayot t.– 45,9

Shahar importi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani **14,7 %** ulush bilan **481,6** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Respublika importi tarkibida eng quyi ulushni Yangihayot **1,4 %** ulush bilan **45,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-aprel oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **143,7** mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining **4,4** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **94,9** % ga kamaygan. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**27,7** %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (**23,4** %) Transport xizmatlari (**2,6**%) va qurilish xizmatlar (**21,7**%) ga tegishli bo'ldi. Shuningdek, boshqa xizmatlar ulushi jami xizmatlar importining **15,2** % ini tashkil etib, uning tarkibida yuqori ulushlarni moliyaviy xizmatlari (**5,1** %), texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (**4,2**), Jismoniy shaxslar uchun madaniyat va dam olish sohasidagi xizmatlar (**2,3**%) va boshqalar tashkil etdi.

Boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar

27,7

Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari

23,4

Transport xizmatlari

21,8

Qurilish xizmatlar

21,7

Boshqa xizmatlar

15,2



Yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar tomonidan xalqaro transport qatnovi tranzitiga qo'yilgan cheklovlar natijasida transport xizmatlari importi **2,2** baravar kamayib, **31,3** million AQSh dollarini tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2020- yilga nisbatan ba'zi xizmatlar importi oshishi kuzatilgan. Xususan, boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar importi **39,8** million AQSh dollari (o'sish – **3,5** b.), qurilish xizmatlari – **17,1** million AQSh dollari (o'sish – **8,4** baravar)ni tashkil etdi.

